

## Mumtoz bolalar kitobxonligi va uning ko'rinishlari

*Nosirova Zahroxon Latibjon qizi*

### ARTICLE INFO.

### Annotatsiya:

**Kalit so'zlar:** mumtoz, tarbiya, sarchashma, ma'naviy

*Har bir inson dastlabki tarbiyani, yangi ma'naviy ozuqani oilada ota-onadan oladi. Keyin esa maktabga boradi. Jamoada o'zini qanday tutishni o'rganadi. Ma'naviy ozuqa olishning, chin inson bo'lib yetishishning birdan bir yo'li bu kitob mutolaasi hisoblanadi. Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog'liq. U insonni komillik sari yetaklaydi. Darhaqiqat, bu ma'naviy sarchashma farzandlarimizning dunoqarashini boyitadi, nutqini o'stirib, xotirasini mustahkamlaydi.*

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

### Introduction

Har bir inson dastlabki tarbiyani, yangi ma'naviy ozuqani oilada ota-onadan oladi. Keyin esa maktabga boradi. Jamoada o'zini qanday tutishni o'rganadi. Ma'naviy ozuqa olishning, chin inson bo'lib yetishishning birdan bir yo'li bu kitob mutolaasi hisoblanadi. Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog'liq. U insonni komillik sari yetaklaydi. Darhaqiqat, bu ma'naviy sarchashma farzandlarimizning dunoqarashini boyitadi, nutqini o'stirib, xotirasini mustahkamlaydi.

"Guliston" va "Bo'ston" - dunyoviy pandnoma xarakterdagi asar:

"Sa'diy" taxallusining kelib chiqishi Fors Saad ibn Zangiga (1195-1226) borib taqaladi. Hayotdan erta ko'z yumgan shoirning otasi uning qo'lida xizmat qilgan, Musdih ad-Dinning tarbiyasida ishtirok etgan. Saad ibn Zangi Muslim ad-Dinning hamkorligi ostida Bog'doddagi Nizomiya madrasasiga o'qishga kiradi. So'fi shayxlarining qo'lida dars oladi va hujjat zohidiy tariqatlariga chuqur kirishib ketadi. Biroq, Sa'diy tomonidan berilgan she'rlar hayotga bo'lgan o'spirinlik sevgisi va quvonchi bilan tarovat sohib turadi; Shayh Abul-Faraj Juziy uning musiqaga bo'lgan sevgisini davolay olmaganligini uning shaxsan o'zi qarigan chog'i tan olgan.

Mo'g'ullar istilosi va Sa'di ibn Zangining 1226-yil taxtdan ag'darilishi sabab, Sa'diy qochishga majbur bo'ladi va hayotining keyingi 30 yillik qismi davomida qismat uni musulmonlar olamining bir chekkasidan boshqasiga tashlaydi. Hindistonda, budxonada o'z hayotini saqlash maqsadida Saadi otashparastlar dinini (Zarostrianizm) soxta tarzda qabul qiladi va soqchi ruhoniyni tosh bilan o'ldirib, qochadi. Sa'diy Makkaga 14 yillik piyoda tashrif buyuradi. Mumtoz Arab tilini mukammal darajada

bilish tufayli, Damashq xatibi ,

bo'ladi, ammo dunyo tashvishlaridan toliqib, Quddus ostidagi dashtlarda yolg'iz yashaydi. Bu erda u hoj ko'taruvchlariga asir tushib, ular olimni Suriya sohiliga olib kelishadi va Tripolida uni qal'a qurilishi uchun chuqur kavlashga majbur qilishadi. Uni 10 tanga evaziga aleppolik bir boy sotib oladi, uyiga olib kelib, o'zining badbashara va janjalkash qiziga uylab qo'yadi. Chidab bo'lmas oila hayotidan qutilish maqsadida, u Shimoliy Afrikaga qochib ketadi.

Butun Kichik Osiyo bo'ylab sayohat uni Sherozga olib keladi (1256) va marhum Sa'diyning o'g'li Abu Bakarning yordami bilan shahar chekkasidagi masjidida umrining oxirigacha yashaydi. "Shaharning eng nufuzli aslzodalari va fuqarolari shayxning huzuriga kelardi, deydi Davlat shox".

Sa'diy juda ko'p she'rlari va nasriy asarlarni yozgan, pand-nasihat o'rnida ko'plab o'z hayotidan namunalar olgan. Dunyoning butun tashvishini ustidan o'tkazgan Sa'diy o'zining zamondoshlari va o'tmishdoshlari bo'lmish Farididdin Attor va Jaloliddin Rumiy, shayx Abdulqodir al Jiloniy va boshqalarning so'fichilik qarashlari bilan nazariy jihatdan hamfirdir.

Ammo odamlarni yaxshi bilgan Sa'diy barcha ham dunyodan o'z xohishiga ko'ra keta olish qobiliyatiga ega emasligini va inson tanaga faqat sirli tafakkurdagina barham berishga qodir ekanligini tushungan.

Shuning uchun Sa'diy dunyoviy zo'hdlikni turmushga bog'laydi: tinchlikda yashashni, lekin unga qaram bo'lib qolmaslikni, uning shafqatsizligini anglashni va yer yuzidagi narsalarni yo'qolishiga har bir soatda tayyor bo'lishga chorlaydi.

1257-yil u "Bo'ston" nomli she'riy risolasini yozib, uning to'qqizta bobidagi misralarda so'fiylik falsafasi va axloqini bayon qilib, qiziqarli masal hamda hikoyalar bilan jamlaydi. She'riy tuyg'ularning chuqurligi va axloqiy go'yalarning balandligi bilan "Bo'ston" – so'fiy adabiyotining eng buyuk asarlaridan biridir. To'g'rirog'i, "Bo'ston" emas, "Guliston" (1258-yil she'riy misralar bilan aralash shaklda). "Guliston" o'ziga xos milliychilik jozibasiga ega, shu sabab, ko'plab mashur maqol va matallar bilan boyitilgan. "Guliston"ga o'xshash yana bir, deyarli quruqroq asar "Pandnoma" kitobi hisoblanib, Atorning shu nomli kitobi ham bo'lganligi bois, bu asar Sa'diy qalamiga mansubligi to'liq isbotlanmagan.

Ushbu ikki asarning o'zbekcha tarjimai XX asrning 70-yillarida birinchi bor nashr etilgan bo'lib, bugun ularni topishda nafaqat oddiy o'quvchi, balki mutaxassislar ham katta qiyinchilik sezayotgandi.

Markaziy Osiyodagi xayrli o'zgarishlar, jumladan, o'zbek va tojik xalqlarini bir-biriga bog'lab turgan azaliy do'stlik rishtalarining jadallik bilan tiklanib borayotgani ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy, jumladan, adabiy hamkorlikni kengaytirishga yangi imkoniyatlar yaratayotir. Bu davlatimiz rahbari tomonidan barchamizga saboq bo'lishga arziqli yangi-yangi tashabbuslar ko'rsatilmoqda. Jumladan, 2018-yil 9-10-mart kunlari davlatimiz rahbarining qardosh Tojikistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi chog'ida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'zining mustahkam do'stlikning ramziy ifodasi sifatida ikki buyuk adibning biri haqidagi qimmatli ma'lumotlarini o'zida mujassam o'zbek, tojik va rus tillaridagi "Jomiy va Navoiy" kitobining kitobining qo'shni mamlakat rahbari Emomali Rahmonga taqdim etilgani ham o'zbekistonlik, ham tojikistonlik tadqiqotchilar uchun ibrat bo'ldi.

Umumbashariy sivilizatsiya zarvaraqlaridan o'rin olgan, ulkan adabiy meros qoldirgan allomalar fors-tojik adabiyotida ko'plab topiladi. Fors-tojik adabiyoti umuminsoniy qimmatga molik madaniy-ma'naviy xazinaga benazir hissa qo'shgan Sa'diy Sheroziy jahon adabiyotida o'chmas from koldirgan shunday buyuk mutafakkirlardandir.

Umumbashariy sivilizatsiyaga qo'shgan benazir hissasining e'tirofi sifatida 21 aprel UNESCO tomonidan "Buyuk fors shoiri va gumanisti Shayx Sa'diy Sheroziy xotirlash kuni" deb e'lon qilingani bejiz emas. Zero, adib ijodining boshidan oxirigacha bir shodaga aylantirgan mavzu - inson, uning

quvonch-u tashvishlari, baxt-u saodatiyu dard-u alamlari, kamolotiyu tubanligi sabablari bo'lib, ularning barchasi, so'zsiz, tuganmas va doimo barhayot mavzulardir.

Sa'diy Sheroziy ijodining mahsuli dunyoning o'nlab tillariga tarjima qilingani uning ahamiyati nechog'li yuqoriligidan dalolat beradi. Mutafakkir asarlari tarjimasi haqida so'z ketganda, Shoislom Shomukhamedovning Sa'diyga xos betakror ruhiyatni saqlab qolgan, ya'ni barchaga ma'lum haqiqatni shoir forschada bayon etganidek yuksak nazokat va fusunkor shaklda o'zbek tilida ifodalay olganini alohida ta'kidlash joiz.

Darhaqiqat, Sh.Shomuhamedov o'zbek ilm-fani va adabiyotida chuqur nom qoldirgan serqirra mutafakkirlardan edi. Ushbu fikrning isboti sifatida Shoislom Shomuhamedov qalami ostidan chiqqan ilmiy tadqiqotlar, tarjima va badiiy asarlarning jami adadi olti yuzdan ortiqligi hamda forschadan qilingan tarjimalar nashrining umumiy soni bir milliondan oshganini eslatish mumkin. Bu yerda gap ketganda, shubhasiz, Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlari tarjimasini alohida ta'kidlash joiz.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bugungi ziddiyatlarga to'la zamonda Sa'diy adabiyot merosi kabi hikmatli ma'rifiy manbalarga bo'lgan ehtiyoj misli ko'rilmagan darajada oshdi. "Ommaviy madaniyat" deb nomlanayotgan qattol ma'naviy taxdid kundan-kunga kuchayib borayotgan hozirgi sharoitlarda inson tafakkurini haqiqiy ma'rifat injulari bilan boyitish uchun "Guliston" va "Bo'ston" dek didaktik asarlarga qayta- qayta murojaat qilish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Biroq, bu ikki asarning o'zbekcha tarjimasi XX asrning 70-yillarida birinchi bor nashr etilib, bugun ularni topish amrimahol bo'lib qolgani ham sir emas. Xatto ushbu nodir asarlarning o'zbekcha tarjimasini topishda oddiy o'quvchi, balki mutaxassislar ham katta qiyinchilik sezmoqda.

## References: